



TARBIYA FANINI O‘QITISHDA REFLEKSIV VA MODULLI YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI

Mamatova Munisa Davlatovna

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tarbiya fanini o‘qitishda refleksiv va modulli yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Refleksiv yondashuv ta’lim oluvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy o‘sishni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, modulli yondashuv ta’lim jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich tashkil etishga imkon beradi. Ularning integratsiyasi pedagogik jarayonning samaradorligini oshirib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlashga xizmat qiladi. Maqolada ushbu yondashuvlarning nazariy asoslari, ularning integratsion modeli hamda pedagogik natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarbiya fani, refleksiv yondashuv, modulli ta’lim, integratsiya, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchi faoliyati, refleksiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

THE INTEGRATION OF REFLEXIVE AND MODULAR APPROACHES IN TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION

Annotation:

This article theoretically and practically analyzes the integration of reflexive and modular approaches in teaching the subject of education. The reflexive approach is aimed at developing learners’ abilities to analyze their own activities, engage in self-assessment, and manage personal growth, while the modular approach allows the educational process to be organized systematically and step by step. Their integration increases the effectiveness of the pedagogical process and contributes to the implementation of learner-centered education. The article examines the theoretical foundations of these approaches, their integrative model, and the pedagogical outcomes achieved through their combination.



Keywords: education subject, reflexive approach, modular teaching, integration, pedagogical technologies, student activity, reflection, learner-centered education.

ИНТЕГРАЦИЯ РЕФЛЕКСИВНОГО И МОДУЛЬНОГО ПОДХОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА ВОСПИТАНИЯ

Аннотация:

В данной статье теоретически и практически проанализирована интеграция рефлексивного и модульного подходов в преподавании предмета «Воспитание». Рефлексивный подход направлен на развитие у обучающихся способности анализировать собственную деятельность, осуществлять самооценку и управлять личностным ростом, тогда как модульный подход обеспечивает системную и поэтапную организацию образовательного процесса. Их интеграция повышает эффективность педагогического процесса и способствует реализации личностно-ориентированного обучения. В статье рассматриваются теоретические основы данных подходов, их интеграционная модель, а также педагогические результаты, достигнутые в ходе их сочетания.

Ключевые слова: предмет воспитания, рефлексивный подход, модульное обучение, интеграция, педагогические технологии, деятельность учащегося, рефлексия, личностно-ориентированное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchida mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish va o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu ma'noda refleksiv va modulli yondashuvlarning integratsiyasi tarbiya fanini o'qitishda dolzarb metodologik yo'nalish hisoblanadi. Tarbiya jarayonida insonning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi, shuning uchun o'qitish texnologiyalarida refleksiya va modullilik o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilganda, o'quvchi shaxsining ongli ravishda o'sishi, ijtimoiy tajriba asosida o'zini anglash jarayoni jadallashadi. Modulli yondashuv esa ta'lim jarayonini



maqsadli, tizimli va strukturalashgan holda tashkil etishga imkon beradi. Tarbiya fanida modulli yondashuv o'quvchilarni ma'lum pedagogik bosqichlar orqali ongli ishtirok etishga, o'z ustida ishlashga undaydi. Har bir modulda nazariy bilim, amaliy topshiriqlar, mustaqil tahlil hamda refleksiv mashg'ulotlar uyg'unlikda olib boriladi. Masalan, "Axloqiy qadriyatlar va shaxs" modulida o'quvchilar bir tomondan axloqiy me'yorlar haqida nazariy bilimga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z hayotiy tajribalari orqali bu qadriyatlarga refleksiv yondashuvni shakllantiradilar. Shunday qilib, o'quv jarayonining har bir bosqichi shaxsning ichki dunyosini anglash va o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining faol subyekt sifatida shakllanishi, uning fikrlash, tahlil qilish, o'zini anglash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, refleksiv va modulli yondashuvlarni integratsiyalash ta'lim samaradorligini oshiruvchi innovatsion model sifatida qaralmoqda. Tarbiya fanining o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat bilim berish, balki axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishni ham maqsad qiladi. Shuning uchun ushbu fan doirasida yondashuvlarning integratsiyasi o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv yondashuv o'qituvchi va o'quvchining o'z faoliyatiga ongli ravishda baho berish, o'z fikrlarini tahlil qilish va natijalarni qayta ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu yondashuvda o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiya fanida refleksiya o'quvchilarni o'z xatti-harakatlarini tushunish, axloqiy tanlovlar qilish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish orqali shaxsiy o'sishga yo'naltiradi. Refleksiv va modulli yondashuvlarning integratsiyasi tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik model sifatida e'tirof etilishi mumkin. U nafaqat ta'lim jarayonining mazmunij jihatdan boyishini, balki o'quvchining ichki refleksiv mexanizmlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Bunday integratsiya o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy o'sishini, o'z-o'zini baholash va boshqarish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, refleksiv-modulli model



tarbiya fanini o'qitishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan kompleks yondashuvdir.

Refleksiv yondashuvning samaradorligi o'quvchining:

1-o'zini anglash darajasi;

2-axloqiy qadriyatlarga munosabati;

3-shaxsiy pozitsiyasining mustahkamligi;

4-ichki motivatsiya shakllanishi bilan belgilanadi.

Modulli ta'lim tizimi ta'lim jarayonini mustaqil, mazmunan yakuniy qismlarga — modullarga bo'lishga asoslanadi. Har bir modul ma'lum pedagogik maqsad, mazmun, o'quv topshiriqlari va baholash mezonlarini o'z ichiga oladi. Bu yondashuv:

Ta'lim jarayonining strukturaviy aniqligini ta'minlaydi;

O'quvchilar uchun individual tempda o'qish imkonini yaratadi;

Natijaviylikni nazorat qilishni osonlashtiradi.

Modulli yondashuv esa ta'lim jarayonini maqsadli, tizimli va strukturalashgan holda tashkil etishga imkon beradi. Tarbiya fanida modulli yondashuv o'quvchilarni ma'lum pedagogik bosqichlar orqali ongli ishtirok etishga, o'z ustida ishlashga undaydi. Har bir modulda nazariy bilim, amaliy topshiriqlar, mustaqil tahlil hamda refleksiv mashg'ulotlar uyg'unlikda olib boriladi. Masalan, "Axloqiy qadriyatlar va shaxs" modulida o'quvchilar bir tomondan axloqiy me'yorlar haqida nazariy bilimga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z hayotiy tajribalari orqali bu qadriyatlarga refleksiv yondashuvni shakllantiradilar. Shunday qilib, o'quv jarayonining har bir bosqichi shaxsning ichki dunyosini anglash va o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonning bu integratsion modeli o'qituvchidan ham yangicha fikrlashni, metodik refleksiyani, o'z darslarini rejalashtirishda o'quvchining ichki dunyosini inobatga olishni talab etadi. Tarbiya fanini o'qitishda refleksiv-modulli model o'qituvchi faoliyatining ham uzluksiz tahlil qilinishi va takomillashuvini taqozo etadi. O'qituvchi o'z darslarini tahlil qilib, har bir modulda o'quvchi faoliyatining o'sish dinamikasini kuzatadi, bu esa tarbiyaviy jarayonning individuallashtirilgan shaklini yaratadi. Tarbiya fanida modulli yondashuvni qo'llash orqali o'quvchi o'z faoliyatini bosqichma-bosqich rejalashtirish, mustaqil qarorlar qabul qilish, maqsadga yo'naltirilganlikni shakllantirish imkoniga ega



bo'ladi. Ushbu ikki yondashuvni integratsiyalash pedagogik jarayonda sinergiya hosil qiladi. Ya'ni modulli ta'lim reflektiv tahlil bilan boyitilganda:

- 1-har bir modul yakunida o'quvchi o'z faoliyatini baholaydi;
- 2-natijalar tahlil qilinadi, o'z-o'zini rivojlantirish yo'nalishlari belgilanadi;
- 3-o'qituvchi esa reflektiv tahlil natijasida pedagogik strategiyani qayta ko'rib chiqadi.

Bunday integratsion modelda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki reflektiv yo'lboshchi rolini bajaradi. O'quvchi esa faol ishtirokchi, o'z ta'lim yo'lini anglab, individual rivojlanish traektoriyasini belgilovchi subyektga aylanadi. Pedagogik jarayonning bu integratsion modeli o'qituvchidan ham yangicha fikrlashni, metodik refleksiyaning, o'z darslarini rejalashtirishda o'quvchining ichki dunyosini inobatga olishni talab etadi. Tarbiya fanini o'qitishda reflektiv-modulli model o'qituvchi faoliyatining ham uzluksiz tahlil qilinishi va takomillashuvini taqozo etadi. O'qituvchi o'z darslarini tahlil qilib, har bir modulda o'quvchi faoliyatining o'sish dinamikasini kuzatadi, bu esa tarbiyaviy jarayonning individuallashtirilgan shaklini yaratadi. Tarbiya fanining zamonaviy o'qitilishi jarayonida reflektiv-modulli yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda shaxsiy rivojlanishga doimiy intilish, o'zini tahlil qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish va ijtimoiy muhitda to'g'ri yo'l tutish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu tarzda, integratsion yondashuv pedagogik amaliyotda nafaqat nazariy jihatdan, balki metodik samaradorlik nuqtayi nazaridan ham muhim o'rin egallaydi.

XULOSA

Tarbiya fanini o'qitishda reflektiv va modulli yondashuvlarning integratsiyasi zamonaviy pedagogikaning eng muhim konseptual yo'nalishlaridan biridir. Ushbu integratsion model ta'lim jarayonida shaxsning intellektual, axloqiy va ijtimoiy jihatdan uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Reflektiv yondashuv orqali o'quvchi o'z fikrlarini tahlil qilish, o'z xatti-harakatlarini baholash, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini o'zi rivojlantirish jarayoniga faol kirishadi. Bu esa shaxsiy o'sishning ichki mexanizmlarini faollashtiradi. Modulli yondashuv esa ta'lim mazmunini tizimlashtirish, bosqichma-bosqich o'zlashtirish va natijani nazorat qilish imkonini beruvchi strukturaviy asos vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuvlar o'zaro



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

uyg'unlashganda ta'lim jarayonida shaxsiy refleksiya va o'zlashtirish faoliyatining dinamikasi keskin oshadi. Har bir modul yakunida o'quvchining refleksiv tahlili, o'zining yutuq va kamchiliklarini anglash, kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkoniyatini yaratadi. Natijada o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki o'z o'quv faoliyatini boshqaruvchi, o'zini anglay oluvchi, shaxsiy mas'uliyatni his etuvchi subyektga aylanadi. Shu tariqa refleksiv-modulli yondashuv tarbiya fanini faqat axloqiy tushunchalarni o'rgatuvchi emas, balki shaxsni shakllantiruvchi, ichki o'zgarishlarni boshqaruvchi jarayonga aylantiradi. Pedagogik nuqtayi nazardan, ushbu yondashuvlar integratsiyasi o'qituvchining ham kasbiy refleksiyasini chuqurlashtiradi. O'qituvchi o'z faoliyatining samaradorligini baholash, o'quvchining ichki rivojlanish jarayonini tahlil qilish va ta'lim strategiyasini moslashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon ta'lim tizimining insonparvarlik tamoyillariga asoslanishini, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Azizxo'jayev, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2020.
2. Yo'ldoshev, J. G. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: O'qituvchi, 2019.
3. Abdullayeva, D. A. Refleksiv pedagogika asoslari. – T.: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Hasanboeva, O. U. Ta'lim jarayonida modulli texnologiyalarni qo'llash. – T.: Istiqlol, 2020.
5. Ziyayeva, N. Sh. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T.: TDPU, 2022.